Hamshiralik ishi (patronaj hamshiralari) mutaxassisligi bo'yicha shakllantirilgan test savollari ro'yxati

1 Patronaj xizmati tushunchasiga berilgan to'g'ri ta'rif ko'rsatilgan javobni aniqlang:
umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan olib boriladigan ilk yoshdagi bolalarda, tug'ruqqgacha va tuqruqdan keyingi davrdagi ayollarga, "xonadonga tashriflarni tashkil qilish va bajarishni anglatadi"
patronaj hamshiralari tomonidan olib boriladigan ilk yoshdagi bolalarda, tug'ruqgacha va tuqruqdan keyingi davrdagi ayollarga, "xonadonga tashriflarni tashkil qilish va bajarishni anglatadi"
patronaj va oila hamshiralarining umumiy faoliyatlarning jamlanmasini anglatadi
bo'lim va muolaja hamshiralari tomonidan olib boriladigan ilk yoshdagi bolalarda, tug'ruqgacha va tuqruqdan keyingi davrdagi ayollarga, "xonadonga tashriflarni tashkil qilish va bajarishni anglatadi"

2 Universal-progressiv modelning asosiy maqsadi bu:
ota-onalar va ularning yaqinlari farovonligi bilan bog'liq ravishda bolalarning salomatligi va farovonligini himoya qilish hamda rivojlantirishdir,
ota-onalarning oilaviy farovonligini himoya qilish hamda rivojlantirish mahalladagi har bir oilaning aqliy salohiyatini oshrish va rivojlantirish,
mahalla aholisining jismoniy salomatligi va farovonligini himoya qilish hamda rivojlantirishdir.

3 Patronaj hamshiralarning faoliyatini tashkillashtirishda ishning samarasini oshirish uchun ularni qanday materiallar to'plami bilan ta'minlash zarur:
noutbuk, printer, qo'l tarozi, santimetrli lenta, 2 turdagi - tana va xona haroratini o'lchash uchun termometr, tonometr, qo'lni dezifektsiya qilish uchun vosita, birinchi yordam ko'rsatish uchun dorilar to'plami, uslubiy ko'rsatmalar, eslatmalar bilan ta'minlanishi kerak,
qo'l tarozi, santimetrli lenta, tonometr, qo'lni dezifektsiya qilish uchun vosita, birinchi yordam ko'rsatish uchun dorilar to'plami, planshet, internet yoki Wi-Fi,
bo'y o'lchagich, qo'l tarozi, santimetrli lenta, 2 turdagi - tana va xona haroratini o'lchash uchun termometr, tonometr, qo'lni dezifektsiya qilish uchun vosita, birinchi yordam ko'rsatish uchun dorilar to'plami, uslubiy ko'rsatmalar, eslatmalar bilan ta'minlanishi zarur,
qo'l tarozi, santimetrli lenta, haroratini o'lchash uchun termometr, tonometr, qo'lni dezifektsiya qilish uchun xlor, dorilar to'plami, uslubiy ko'rsatmalar, eskizlar bilan ta'minlanishi zarur.

4 Kasalliklar va ularning rivojlanish xavf omillarini aniqlash salomatlik guruhlariga tasniflash bemorlarga tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladigan tibbiy ko'rik majmuasi bu:

maqsadli tibbiy ko’rik,
chuqurlashtirilgan tibbiy ko’rik,
profilaktik tibbiy ko’rik,
navbatdagi tibbiy-profilaktik ko’rik.

5 Amaliyot hamshirasi poliklinikaning qaysi xonasida ish faoliyatini yuritib, kimlarni boshqaradi:
amaliyot hamshirasi shifokor oldi ko’rik xonasida faoliyat yuritib, brigadada faoliyat yuritayotgan patronaj hamshiralar va doyaning ish faoliyatini boshqaradi,
amaliyot hamshirasi akusher - ginekolog xonasida faoliyat yuritib, bo’limdagi hamma hamshiralarni boshqaradi,
amaliyot hamshirasi muolaja xonasida faoliyat yuritib, brigadada faoliyat yuritayotgan hamshiralar faoliyatini boshqaradi,
amaliyot hamshirasi shifokor oldi ko’rik xonasida faoliyat yuritib, akushher-ginekolog faoliyatini boshqaradi.

6 “Shifokor ko’rik oldi” xonasida hamshiraning bajaradigan ish faoliyati bo’yicha standartning maqsadi nima:
shifokorlarga tushadigan yuklamani yengillashtirish,
shifokor qabuliga bo’ladigan sababsiz navbatlarni kamaytirish, davolash, navbatlarni tartibga solish,
murojaat qilgan bemorning ko’rigini ta’minlash, davolash, yo’llanma berish, tor mutaxassis ko’rigiga yo’naltirish, MRT, MSKT, UTT, rentgen tekshiruvlaridan o’tkazish,
murojaat qilgan bemorning birlamchi ko’rigi va aholini tibbiy-profilaktik ko’rik va skriningdan o’tkazish, shifokor qabuliga bo’ladigan sababsiz navbatlarni kamaytirish, shifokorlarni vaqtini tejash va bemorlarga malakali tibbiy yordam berishga sharoit yaratish, ya’ni mehnat samaradorligini oshirish.

7 OIV qo’zg’atuvchisini aniqlang:
pilovirus,
bakteriya,
DNK saqlovchi virus,
retrovirus.

8 OIV virusi muzlatilgan zardobda qancha vaqtgacha saqlanadi
5 yilgacha,
8 yilgacha,
20 yilgacha,
10 yilgacha.

9 Tarkibida OIV saqlanadigan potentsial xavfli biologik suyuqliklarni belgilang:
qon, ona suti, ko’z yoshi, shaxvat, ter, siydik,

qon, shaxvat, qin suyuqligi, amniotik suyuqlik, ona suti, sinovial suyuqlik, qusuq, so’lak, najas, yiring, me’da va o’n ikki bamoqli ichak suyuqligi, ko’z yoshi, yiring, oshqozon shirasi, o’t suyuqligi.

10 OIV infektsiyasining yuqish mexanizmini aniqlang:
jinsiy, transmessiv, havo tomchi,
parenteral, vertikal, gorizontal,
jinsiy, parenteral, vertical,
hashoratlar chaqqanda, iflos qo’llar orqali, kontakt yo’l bilan.

11 OIV infektsiyasi bu qanday kasallik:
belgisiz tashib yuruvchilikdan tortib immun tizimni zararlanishiga olib keladi va vaqti – vaqti bilan ARVT bilan davolanib turuvchi kasallik,
belgilarsiz tashib yuruvchilikdan tortib immun tizimni zararlaydi va o’xshash hisoblanadi,
belgisiz tashib yuruvchilikdan tortib, immun tizimni zararlanishini rivojlantiradi, muqarrar o’limga olib boruvchi kasallik,
o’tkir yuqumli kasallik va shiddatli ravishda o’lim bilan yakunlanishi mukin.

12 Bemorning holatini patronaj hamshirasi qanday baholaydi:
aktiv, passiv, majburiy,
yaxshi, yomon,
passiv, majburiy,
aktiv, passiv.

13 Patronaj hamshirasining vazifasi nima:
Aholini sog’lomlashtirish,
Aholiga ijtimoiy yordam berish,
Emlash ishlarini olib boorish,
Poliklinikada ish faoliyatini olib boorish.

14 Bemorning kasalligi tufayli o’z-o’ziga ta’sir etishi qanday ataladi:
egrotogeniya,
yatrogeniya,
gospitalizm,
egogeniya.

15 Uy sharoitidagi hamshiralik parvarishini o’tkazishda bemor uchun qanday bosim qisqaradi:
iqtisodiy,
ijtimoiy,
ruhiy,
ma’naviy.

16 Sanitariya-oqartuv ishlaridan ko’zlangan maqsadni ko’rsating:
mahallalarda salomatlik maktablarini yaratish,
turmush tarzini sog’lomlashtirish,

aholi orasida tibbiy saviyani oshirish,
sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish.

17 Sog’lom turmush tarzi – bu:
salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan inson xatti-harakatlarining individual tizimi,
jismoniy tizimli mashqlarni bajarish,
insonning salomatlik haqidagi bilimlaridan tashkil topgan dunyoqarashi,
insonning ruxiy salomatligi haqidagi bilimlaridan tashkil topgan dunyoqarashi.

18 Sog’lom turmush tarziga berilan ta’rifni belilang:
salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan inson xatti-harakatlarining individual tizimi,
jismoniy tizimli mashqlarni bajarish,
insonning salomatlik haqidagi bilimlaridan tashkil topgan dunyoqarashi
insonning ruxiy salomatligi haqidagi bilimlaridan tashkil topgan dunyoqarashi.

19 Patronaj hamshirasi o’zining qanday ko’nikmalarini oshirib borishi kerak:
amaliy,
nazariy,
maorifiy,
ta’limiy.

20 Noverbal muloqot qanday amalga oshadi:
bir insonnig ko’p kishilik guruh bilan suhbati,
imo-ishora, qo’l va gavda harakati bilan muomalada bo’lish,
og’zaki muloqot,
muloqotni samarali olib boorish,

21 Muloqot samarali bo’lishi uchun nechta element muhim:
5ta,
3ta,
4t,a
2ta.

22 Inson his-tuyg’lari va emotsiyalarining tashqi ko’rinishi muloqotning qaysi vositasi orqali namoyon bo’ladi:
ichki shaxsiy muloqot,
o’zaro shaxsiy muloqot,
noverbal muloqot,
verbal muloqot.

23 Tana haroratini o’lchash joylari:
og’iz bo’shlig’i, qo’ltiq osti, to’g’ri ichak
qo’ltiq osti, to’g’ri ichak, tirsak bo’shlig’i

og’iz bo’shlig’i, qo’ltiq osti, peshonada, tizza bo’shlig’i, to’g’ri ichak
og’iz bo’shlig’i, tizza bo’g’imi, quloq ortida

24 Puls qaysi sohalarda aniqlanadi:
chakka, uyqu arteriyasi, bilak sohasi, tizza ko’zi osti (taqim arteriyasi,
to’piqning ichki qismida,
ensa soxasidan, qorin va oshqozon soxasida, barmoqda,
boshning yuqori qismida, peshona soxasida, qovuqda, to’piqda,
jag ostida, qorin va oshqozon soxasida, tizzada, boldirda, kichik chanoq
soxasida.

25 Nafas a’zolari kasalliklari ko’pincha qaysi belgilar bilan namoyon bo’ladi:
nafas qisishi, yo’tal, qon tupurish, ko’krak qafasida og’riq, tana harorati
ko’tarilishi,
nafas tezlashishi yoki to’xtab qolishi,
puls tezlashishi, balg’am tashlash, ishtahaning keskin oshib ketishi,
ko’krak qafasining yuqori qismida simillagan og’riq paydo bo’lishi, tana
xaroratining birdaniga tushib ketishi.

26 Tana haroratning o’zgarishiga qarab, isitmaning quyidagi turlari farqlanadi:
doimiy yuqori isitma, remittirlovchi isitma, almashinib turadigan isitma,
to’lqinsimon isitma, gektik isitma,
qisqa muddatli isitma, o’tkir isitma, o’rtacha isitm
surunkali isitma, doimiy isitma, normal isitma
aralash isitma, doimiy remittirlovchi isitma, almashinib turadigan isitma,
to’lqinsimon isitma

27 Ota-ona o’smirga qanday mavzular haqida tarbiyaviy suhbat o’tkazishi
lozim:
javobgarlik xissi, jinsiy xulq-atvor tarbiyasi, o’smirlik davri muammolari,
organizmdagi tabiiy o’zgarishlar, shaxsiy gigiyena qoidalari,
o’z-o’zini moddiy ta’minlash xissi, jinsiy aloqa, o’smirlik davridagi
kasalliklar haqida,
organizmdagi salbiy o’zgarishlar, shaxsiy mulkka egalik xissi,
kelajakdagi orzu va niyatlarni rejalashtirish haqida, chekish va
alkogolizmning organizmga ta’siri haqida.

28 Hamshiralik jarayoni- bu:
bemorni davolash,
hamshiralik parvarishiga sistematik yondashuvi,
bemorni ovqatlantirish,
bemorga rahbarlik qilish.

29 JSSTning sog’lom oilani shakllantirish asosiy tamoyillarini ko’rsating:
kam bola tug’ish, umuman farzandsizlik, ekstragenital kasalliklar bilan
kechadigan kasalliklar,

juda erta farzand ko’rish, juda kech farzand ko’rish, farzandlar orasidagi davr, ko’p bola tug’ish, homiladorlikni kasallik bilan kechishi,
o’ziga yoqmaydigan jinsli homiladan voz kechish, ko’p bola tashlash, rezus nomutanosiblik,
tez-tez farzand ko’rish, juda kech farzand ko’rish, yaqin qarindoshlar o’rtasidagi nikoh, farzandlar orasidagi davrning kamligi, ko’p bola tug’ish, homiladorlikning yuqumli kasallik bilan kechishi.

30 Xalqaro hamshiralar kuni qachon nishonlanadi:
7 may,
3 may,
12 may,
12 aprel.

31 Oilaviy poliklinika qanday bo’g’in:
uchlamchi bo’g’in,
birlamchi bo’g’in,
oraliq bo’g’in,
iIkkilamchi bo’g’in.

32 Yotoq yara hosil bo’lmaydigan sohalarini aniqlang:
tos sohasi, tovon sahasi, dumg’aza
ensa sohasi, tovon, kurak sohasi
qorin sohasi, yuz peshona sohasi
to’piq, oyoq barmoqlari sohasi

33 Diyetoterapiya termini nimani anglatadi:
statsionarda ovqatlantirish,
to’laqonli ovqatlantirish,
davo maqsadida ovqatlantirish,
och holda davolash.

34 Sun’iy ovqatlantirishga qaysi javob kirmaydi:
gastrostoma orqali,
parenteral ovqatlantirish,
choynaksimon idish va qoshiq yordamida,
Burun yoki og’izdan zond orqali ovqatlantirish.

35 Tana haroratini o’lchashdan oldin nima uchun qo’ltiq sohasi quruq qilib artiladi:
termometr yaxshi turishi uchun
bemorga sovuq bo’lmasligi uchun
gigiyenik maqsadda
natija noto’g’ri bo’lmasligi uchun

36 Tana harorati kritik tushganda bemorni parvarish qilish uchun qanday muolajalar o’tkaziladi:

bemor oqliklarini va ich kiyimlarini almashtiriladi,
bemorga muzli xaltacha qo’yiladi,
yotoq yarani oldini olinadi,
bemor isitiladi va issiq choy beriladi.

37 Tana harorati qaysi asbob yordamida o’lchanadi:
dinamometr,
termometr,
monometr,
spirometr.

38 Termometrni birinchi qanday suvda xo’jalik sovuni bilan yuviladi:
qaynagan suvda,
oqar suvda,
distillangan suvda,
gazli suvda

39 Puls ritmining buzilishi qanday ataladi:
taxisfigmiya,
bradikardiya,
bradisfigmiya,
aritmiya.

40 Minimal arterial qon bosim qanday ataladi:
sistolik,
diastolik,
asistolik,
puls bosimi.

41 Harorat tushushining qanday turlarini bilasiz:
febril, litik, gipertermik,
subnormal, normal,
kritik, litik,
peretik, giperperetik, sistolik.

42 Muloqotning verbal turiga qaysilar kiradi:
yozma muloqot,
imo- ishira bilan muloqot,
og’zaki muloqot,
ichki shaxsiy muloqot.

43 Antropometriya nima:
bemorning tana haroratini o’lchash,
bemor og’irligi, bo’yi va ko’krak aylanasini o’lchash,
qo’l va oyoq mushaklari kuchini olchash,
o’pkaning tiriklik sig’imini o’lchash.

44 Yotoq yara hosil bo’lishining tashqi sabablariga kiradi:
darmonsizlik, qarilik davri
gigiyenik muolajalarni to’g’ri bajarish
kiyim va oqliklarda burmalarning hosil bo’lishi
kam va sifatsiz ovqat yeyish

45 Bemorni yarim o’tirgan va yarim yotgan xolati qanday ataladi:
“Sims” xolati
“Trendelenburg” xolati
‘‘Majburiy’’ xolat
“Fauler” xolati

46 Uy sharoitida hamshiralik parvarishining kamchiliklari:
Nisbatan kam vaqtni oladi
Nisbatan ko’p vaqtni oladi
Ko’p vaqtni talab etmaydi
Bemor to’liq tuzalib ketadi

47 Pulsning tezlashuvi nima deb ataladi:
taxipnoe
taxikardiya
gipotoniya
bradikardiya.

48 Nafas olishning tezlashishini anglatuvchi termini toping:
dispnoe
taxipnoye
apnoe
bradipnoe.

49 Arterial qon bosimi qaysi asbobda o’lchanadi:
manometr
urometr
termometr
tonometr

50 Dezinfektsiya turlariga qaysilar kiradi:
kimyoviy, biologik, texnik
profilaktik va o’choqli
fizikaviy, kimyoviy, biologik
mexanik, fizik, ijtimoiy

51 Gaz chiqaruvchi naycha katta yoshli odamga to’g’ri ichakka qancha sm chuqurlikda kiritiladi:
30-40 sm
10-15 sm
20-30 sm

2-3 sm

52 Yurak-qon tomirlari patologiyasini tekshirishning asosiy usuli qaysi:
gastroskopiya
elektrokardiografiya
bronxografiya
flyurografiya

53 Hamshira tashxisi qaysi bosqichda qo’yiladi:
3 bosqichda
4 bosqichda
2 bosqichda
5 bosqichda

54 Hamshiralik parvarish rejasi qaysi bosqichda tuziladi:
3 bosqichda
5 bosqichda
4 bosqichda
2 bosqichda

55 Insonning 14 ta extiyojlari muallifi kim:
Maslou
Rauper, Logan
Orem, Djonson
V.Xenderson

56 Limfa tugunlari qaysi tekshirish orqali aniqlanadi:
perkussiya, auskultatsiya
perkussiya, palpatsiya
palpatsiya, auskultatsiya
palpatsiya, umumiy ko’rik

57 Arterial qon bosimini oshishi qanday ataladi:
gipotenziya
gipertoniya
giperesteziya
gipertermiya

58 O’pka auskultatsiyasida normada qanday nafas eshitilmaydi:
bronxial nafas
xirillash, krepitatsiya
vezikulyar nafas
bronxo-vezikulyar nafas.

59 Qorin soxasini tekshirishda birinchi bo’lib qaysi usul qo’llanadi:
topografik perkussiya
chuqur perkussiya

yuzaki palpatsiya
auskultatsiya, palpatsiya, chuqur perkussiya

60 Qusish necha turga bo'linadi:
ixtiyoriy va doimiy
aktiv va passiv
markaziy, periferik
majburiy, periferik

61 Steril qo'lqop kiyish shart bo'lgan vaziyatni toping:
bemor ostini yuvishda
bemorga ho'qna qilishda
umumiy siydik tahlilini yig'ishda
qovuqni katetrlashda

62 Qandli diabetda qaysi parhez stoli buyuriladi:
10 - parhez stoli
9 - parhez stoli
5 - parhez stoli
8- parhez stoli

63 Anoreksiya nima:
ishtaxaning oshishi va bemorning sababsiz semirib ketishi
ishtaxaning pasayishi natijasida o'ta ozib ketish
jig'ildon qaynashi va epigastral soxada og'riqlarning paydo bo'lishi
doimiy ravishda ko'ngil aynishi, ovqatni hazm qilolmaslik

64 Hamshiralik jarayonini amalga oshirishda parvarish rejasini tuzish nimaga asoslanadi:
Shifokor tashxisiga
Hamshira tashxisiga
Bemor xohishiga
Tekshiruv natijasiga

65 Yangi chaqaloqlik davri necha hafta davom etadi:
Tug'ilgandan boshlab 5 hafta
Tug'ilgandan boshlab 4 hafta
Tug'ilgandan boshlab 6 hafta
Tug'ilgandan boshlab 7 hafta

66 "Melena" so'zining ma'nosini aniqlang:
defekatsiya aktining buzilishi
tez-tez ich ketishi
najasni oqarib ketishi
najasni "qoramoy"ga o'xshashi

67 Siydik miqdorining kamayishi nima deyiladi:

anuriya
ishuriya
oligouriya
gemoturiya

68 Isitgichni qo’llashga ko’rsatmalar berilgan to’g’ri javobni toping:
o’smalarda, qorindagi og’riqlarda
isitmaning 1 - davri, me’da va ichakda spastik og’riq bo’lganda
o’pka tuberkulyozida, teri kasalliklarida
me’da-ichak va bachadondan qon ketganda

69 Zuluklarni qo’llashga mon’elik qiluvchi holatlarga qaysi javoblar kiradi:
hazm a’zolari tizimining surunkali kasalliklari
gemofiliya, anemiya
tromboflebit, gipertoniyada
insult, miokard infarkti

70 Kislorod nima maqsadda namlab beriladi:
miya shishini oldini olish va o’tkir yurak yetishmovchiligini oldini olish maqsadida
o’pka va bronxlarga kislorodning toksik ta’sirini oldini olish maqsadida
o’tkir tomir yetishmovchiligini oldini olish maqsadida
shilliq qavatlarning qurishi va kuyishni oldini olish maqsadida

71 Zuluklar bilan davolash nima deb ataladi:
oksigenoterapiya
gidroterapiya
diyetoterapiya
girudoterapiya

72 Najasni gijja tuxumlariga qanday yig’iladi:
tozalovchi huqna o’tkazilgandan so’ng
bo’shashtiruvchi vositalarni qabul qilgandan so’ng
yangi ajratilgan najasning 3 shubhali joyidan
gel’mentlarga qarshi dori vositalar qabul qilgandan so’ng

73 Nechiporenko sinamasiga siydik qanday yig’iladi:
ertalab och qoringa 150-200 ml
10 soatlik tungi siydik
ertalabki siydikning o’rta qismi
kun davomida 8 marta

74 Balg’amni atipik hujayralarga qanday yig’iladi:
har 3 soatda
ertalab och qoringa
3 kun mobaynida og’zi keng idishga
bir sutkalik

75 Najasni yashirin qon tahliliga tekshirish uchun ovqat ratsionidan nimalar olib tashlanadi:
sut, tvorog
go’sht, baliq mahsulotlari
guruch va manniy yormasi
makaron mahsuloti

76 Suv balansi nima:
sutka davomida qabul qilingan suyuqlik miqdori
sutka davomida tekshrilgan suyuqlik miqdori
organizmdan suyuqlikning ko’p ajralishi
ichilgan va ajratilgan suyuqlik nisbati

77 Patronaj hamshirasi o’z e’tiborini ko’proq aholini qaysi qatlamiga qaratishi kerak:
Homilador ayollarga
Kam ta’minlangan va nogironligi bo’lgan shaxslarga
Sog’lom aholi qatlamiga
Uyushmagan aholi qatlamiga

78 Xantal qo’yishga ko’rsatmalar berilgan to’g’ri javobni toping:
ko’krak qafasi va qorin bo’shlig’i og’riqlarida, ichki qon ketishlarda
gipertonik kriz, nafas a’zolari tizimining o’tkir yallig’lanishi
ichki qon ketish, hushdan ketish, kollaps
teri kasalliklari, o’smalar, allergiya

79 Muzli xalatachani qo’yishga ko’rsatmalar berilgan to’g’ri javobni tanlang:
teri kasalliklari, o’tkir bronxit, o’tkir traxeitda
gipertonik kriz, insult, miokard infarktda, pnevmoniyada
o’pkadan, me’dadan va bachadondan qon ketganda
o’smalar, buyrak sanchig’ida

80 Kislorodni namlashda qaysi apparatdan foydalaniladi:
“Poten”
“Bobrov”
“Spirometr”
“Dinamometr”

81 Sovuq kompress qancha vaqtga qo’yiladi:
2-3 soat
5-10 soniya
10-20 daqiqa
2-3 daqiqa

82 Yurak auskultatsiyasida nima aniqlanadi:
yurak joylashuvi, chegarasi

yurak shovqinlari va tonlari aniqlanadi
yurak qorinchalari eshitiladi
puls ajratiladi

83 Isitgichni qo’yishda necha gradusli suv qo’llaniladi:
60-70 ^{C}
38-40^{C}
40-45 ^{C}
36-37 ^{C}

84 Isituvchi kompressni qo’yishda ketma-ketlik to’g’ri berilgan javobni toping:
steril bint, kleyonka, paxta sharchalar, turunda, xantal
mum qog’oz, qalin paxta bo’lagi, 6-8 qavat doka salfetka
furatsillin eritmasi, dokali turunda, bint, isitgich
6-8 qavat doka salfetka, mum qog’oz, qalin paxta bo’lagi, bint

85 Muz xaltacha va isitgichni qanday dezinfektsiya qilinadi:
10% li natriy xlor bilan 2 marotaba artiladi
0,5% li dez. eritma bilan 2 marotaba 10 daqiqa oralatib artiladi
oqar suv ostida yuviladi
issiq suvda chayiladi

86 Najasni yashirin qonga qachon yig’iladi:
ertalab nonushtadan keyin simfonli huqnadan so’ng
3 kun maxsus tayyorgarlikdan so’ng
tozalovchi huqna o’tkazilgandan so’ng
kontrast modda yuborilgandan so’ng

87 Umumiy tahlil uchun najas qanday idishga yig’iladi:
karton qutiga
toza, quruq bankaga
toza, quruq, probirka
konservantli idishga

88 Xantalga qarshi ko’rsatmalarga qaysilar kiradi:
miozit, mialgiya
ichki qon ketish, o’pka sili
o’tkir bronxit, o’tkir pnevmoniya
gipertonik kriz, stenokardiya huruji

89 Buyrak xastaligida qaysi parxez stoli buyuriladi:
10 - parxez stoli
5 - parxez stoli
15 - parxez stoli
7 - parxez stoli

90 Isituvchi kompress qancha vaqtga qo’yiladi:

10-20 daqiqa
1-2 soatga
6-8 soatga
24 soatga

91 Kislorod bilan davolash nima deb ataladi:
gidroterapiya
girudoterapiya
diyetoterapiya
oksigenoterapiya

92 Limfa tugunlarini palpatsiya qilganda nima baholanadi:
limfa faoliyati va funktsiyasi
harakatchanligi, og’riq bor-yo’qligi, yumshoq- qattiqligi, holati
limfa suyuqligining aylanishi
limfa tomirlarini joylashuvi

93 Nafas olish a’zolarini baholash uchun qanday usuldan foydalaniladi:
kardiogramma
zondlash
biopsiya
auskultatsiya, perkussiya

94 Ayol umri ruhiy va jismoniy o’zgarishlarga qarab to’g’ri ko’rsatilgan qatorni ko’rsating:
Yangi chaqaloqlik davri, jinsiy yetuklik davri, klimakterik davr va menopauza
Ona qornidagi davr, yangi chaqaloqlik davri, bolalik davri, jinsiy yetilish davri, jinsiy yetuklik davri, klimakterik davr va menopauza
Bolalik davri, jinsiy yetilish davri va menopauza
Ona qornidagi davr, jinsiy yetuklik davri, klimakterik davr va menopauza

95 Universal-progressiv modelning asosiy maqsadini aniqlang:
ota-onalarning oilaviy farovonligini himoya qilish hamda rivojlantirish
ota-onalar va ularning yaqinlari farovonligi bilan bog’liq ravishda bolalarning salomatligi va farovonligini himoya qilish hamda rivojlantirishdir
mahalladagi har bir oilaning aqliy salohiyatini oshrish va rivojlantirish
mahalla aholisining jismoniy salomatligi va farovonligini himoya qilish hamda rivojlantirishdir

96 Patronaj hamshirasining tashxisi nimaga asoslangan bo’ladi:
bemor ko’rinishiga
bemor shikoyatlariga
shifokor ko’rsatmasiga
funksional holatiga.

97 Oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, nogironlikni oldini olish, sog'lom va barkamol avlod yetishtirish maqsadlari doirasida yo'lga qo'yilgan ishlar:
Gerontologiya faniga asos solindi
"Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi
Pediatriya institutiga asos solindi
"Abu Ali ibn Sino" hayriya jamg'armasi

98 OIVni kuzatuv tizimiga qabul qilingan bemorlarning dispanser nazorati qanday amalga oshiriladi:
vaqtinchalik nazorat
doimiy dispanserizatsiya
birlamchi va joriy dispanserizatsiya
yakuniy dispanserizatsiya

99 Muloqot jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni belgilang:
moddiy omillar
ruhiy omillar
iqtisodiy omillar
ma'naviy omillar

100 Patologik nafas shovqinlariga qaysilar kiradi:
bronxial nafas
bronxo – vezikulyar nafas
vezikulyar nafas
xirillashlar, krepitatsiya

101 Bemorga drenaj holatini berishdan maqsad:
bronxlarni kengaytirish
balg'am ajralishini yaxshilash
tana haroratini tushirish
hansirashni kamaytirish

102 Bemorlarning kasalligi tufayli o'zaro bir - biriga ijobiy yoki salbiy ta'siri nima deyiladi:
egogeniya
egrotogeniya
yatrogeniya
emotsiya

103 Tibbiyot xodimlarining xatti - xarakatlari va munosabatlari natijasida kelib chiqadigan bemorlardagi salbiy holat nima deb ataladi:
egrotogeniya
yatrogeniya
emotsiya
egogeniya

104 Gospitalizm nima:
bemorlarning o’zaro e’tiborsizligi
bemorlarning o’zaro ta’siri
bemorlarning tibbiyot xodimlariga bo’lgan munosabati
bemorlarning kasalxona sharoitiga moslashguncha bo’lgan davri

105 Deontologiya so’zining ma’nosini ko’rsating:
lotincha – “zarur, lozim, ta’limot, fan”
yunoncha – “zarur, lozim, majbur, o’rganish”
yunoncha –“yurish turish, odob, muloqot”
yunoncha “burch yoki majburiyat”

106 Arterial bosimni o’lchash uchun fonendoskop qaysi arteriya sohasiga qo’yiladi:
bilak arteriyasiga
chakka artariyasiga
yelka tirsak arteriyasiga
uyqu arteriyasiga

107 Elektron termometrda harorat o’lchash qancha vaqtni tashkil etadi:
5-10 daqiqa tovush signaligacha
bemorning istagini inobatga olgan holda
20 daqiqa
1 daqiqa tovush signaligacha

108 Yurakdan otilib chiqayotgan qonning tomir devorlariga urilishi va ritmik ravishda tebranishi nima deb ataladi:
arterial bosim
harorat
puls
nafas

109 37.0-38.0 C atrofidagi isitma qanday isitma hisoblanadi:
gipertermik
piretik
febril
subfebril

110 Bolaning xayotiga xavf soluvchi 4 ta umumiy xavf belgilarini sanab o’ting:
icha olmasa, isitma qilsa, shaytonlasa, axlatida qon bo’lsa
har qanday ovqat va suyuqlikdan keyin qayt qilsa
isitmalasa, titrash, talvasa, allergiya toshsa, bosh og’rig’i
ema olmasa yoki suyuqlik icha olmasa, qayta-qayta qayt qilsa, shaytonlasa, uyquchan yoki behush bo’lsa

111 6 oylikkacha bo’lgan va faqat ko’krak suti bilan boqilayotgan bolani yo’talini yumshatish uchun nimadan foydalanasiz:

yo’talga qarshi dori vositalari
qaynatilgan iliq suv
qaynatilgan iliq sigir suti
ko’krak suti

112 Diareyasi bor emizikli bolaga (6 oygacha qo’shimcha ovqatlar berilmayotgan bo’lsa, suvsizlanishning oldini olish uchun nima qilasiz:
tozalovchi huqna qilish, ichni yuvish
faqat ko’krak suti, regidron eritmasi, qaynatilgan iliq suv ichiramiz
ko’krak suti berishni to’xtatib, regidron eritmasi, qaynatilgan iliq suv ichiramiz
ko’krak sutidan ajratilib, sun’iy ovqatlanishga o’tkazamiz, qaynatilgan iliq suv ichiramiz

113 Yengil 1 – darajali suvsizlanishning belgilarini sanab o’ting:
10-20% vazn yo’qotishiga olib keladi, terisi quriydi va siydik bu bosqichda xira rangli boladi, ishtaha yaxshilanadi
yengil suvsizlanish odamda 1-3% vazn yo’qotishiga olib keladi, terisi quriydi va siydik bu bosqichda sariq rangga aylanadi
peshobning ko’p ajralishi, qayta-qayta qayt qilish, tana harorati kritik ko’tarilishi aniqlanadi
holsizlanib ishtaxasini pasayib qolishi, tanadagi suv yetishmasligi tufayli terining elastikligi pasayadi va siydik to’q (choy) jigarrang tusga kiradi

114 O’rta 2 – daragali suvsizlanishning belgilarini sanab o’ting:
bu bosqich qattiq suvsizlanish, bu 1% dan kam vazn yo’qotishiga olib keladi va lablarning yorilishiga olib keladi, tanadagi suv yetishmasligi tufayli terining elastikligi pasayadi va siydik jigarrang tusga kiradi
ikkinchi bosqich - o’rtacha darajada suvsizlanish, bu 4 - 6% vazn yo’qotishiga olib keladi, siyish chastotasi yanada kamayadi, siydik to’q sariq rangga ega bo’ladi
ikkinchi bosqich - suvsizlanish odamda 25% vazn yo’qotishiga olib keladi, terisi quriydi va siydik bu bosqichda sariq rangga aylanadi, peshobning ko’p ajralishi, qayta-qayta qayt qilish, tana harorati kritik ko’tarilishi aniqlanadi
ikkinchi bosqich - suvsizlanish odamda 15% vazn yo’qotishiga olib keladi, terisi quriydi va siydik bu bosqichda qizil rangga aylanadi, peshobning ko’p ajralishi, qayta-qayta qayt qilish, tana harorati subfebril bo’lishi aniqlanadi

115 Og’ir 3 – daragali suvsizlanishning belgilarini sanab o’ting:
bu bosqich suvsizlanish odamda 1-3% vazn yo’qotishiga olib keladi, terisi quriydi va siydik bu bosqichda sariq rangga aylanadi
uchinchi bosqich qattiq suvsizlanish, bu 6% dan ortiq vazn yo’qotishiga olib keladi va lablarning yorilishiga olib keladi, tanadagi suv yetishmasligi tufayli terining elastikligi pasayadi va siydik to’q (choy) jigarrang tusga kiradi
3- bosqich o’rtacha darajada suvsizlanish, bu 3- 4% vazn yo’qotishiga olib keladi, siyish chastotasi yanada kamayadi, siydik to’q qizil rangga ega bo’ladi

uchinchi bosqich qattiq suvsizlanish, bu 1% dan ortiq vazn yo'qotishiga olib keladi va tanadagi suv yetishmasligi tufayli terining sarg'ayishi, siydik to'q qizil rangga kiradi, tana harorati kritik darajada ko'tariladi

116 Koronavirus qanday belgilar bilan kechadigan kasallik:
koronavirus bu – bakteriya keltirib chiqradigan kasallik bo'lib, quruq yo'tal tutadi, bir haftadan keyin nafas olish ancha yengillashadi, bosh va mushaklar tonusi oshadi, odam o'zini yomon xis qiladi
koronavirus bu – respirator infeksiya, gipertemiya bilan boshlanadi va quruq yo'tal tutadi, bir haftadan keyin nafas olish qiyinlashadi va ayrimlar kasalxonaga yotishi kerak bo'ladi, bosh va mushaklar og'riydi, odam o'zini charchagandek his qiladi, e'tiborli jihati - koronavirus yuqtirgan odam juda kam hollarda burni oqadi yoki aksiradi
koronavirus bu – zamburug'lar keltirib chiqradigan kasallik bo'lib, varaja bilan boshlanadi va nam yo'tal tutadi, bosh va mushaklar og'riydi, odam o'zini charchagandek his qiladi, lekin bu holat tez o'tib ketadi
koronavirus bu – covid -19, nam va to'xtovsiz yo'tal tutadi, bir haftadan keyin nafas olish yengillashadi va ayrimlar kasalxonaga yotishi kerak bo'ladi, bosh va mushaklar tonusi oshib ketadi, bu holatlar tezlik bilan o'tib ketadi

117 Bolalarni ovqatlantirish haqidagi qaysi fikr to'g'ri:
bolani 6 oygacha ko'krak suti va qo'shimcha sut aralashmalari bilan boqish
6 oydan boshlab qo'shimcha ovqatlarni berish va 2 yoshgacha ko'krak suti bilan emizishni davom ettirish
avval qo'shimcha ovqatni berish, keyin emizish
4 oydan keyin albatta qo'shimcha qo'shish

118 Emlashdan so'ng qanday belgilar kuzatilsa, shifokorga darhol kelish zarur:
bola emlashdan so'ng, faollashib ketsa
harorat ko'tarilishi, bezovtalik, darmonsizlik, teridagi toshmalar yoki qizarish paydo bo'lsa
har bir emlashni odatiy deb hisoblaydigan va sog'lig'iga tahdid solmagan bolaning holatidagi o'zgarishlar bilan birga olib kelishi mumkin, shuning uchun ota-onalar emlashdan keyin shifokorga murojaat qilishi shart emas
har bir-ota ona hamshira tashrifini kutishi va ko'rsatmasiga binoan shifokorga murojaat qilishi kerak

119 O'sishni baholashda qo'llanadigan 3 ta asosiy o'lchovni ko'rsatib bering:
bo'y, bel aylanasi, yelka aylanasi
ko'krak qafasining aylanasi, bo'y, yelka aylanasi
bo'y tana uzunlik, bosh aylanasi, vazn
yelka aylanasi, bosh aylanasi, vazn, qorin aylanasi

120 Homiladorlik vaqtida zudlik bilan tibbiy yordamni talab etuvchi belgilar:
ishtahaning pasayishi
qindan qon ketish

ko’rish qobiliyatini buzilishi
bosh aylanishi

121 Qo’shimcha yordam talab etilishi mumkin bo’lgan bolalar va oilalarga kimlar kiradi:
maktab va bog’cha yoshidagi bolalar
kam ta’minlangan oilalarning farzandlari, rivojlanishdan orqada qoladigan bolalar, qishloq yoki chekka xududlarda yashaydigan bolalar, kichik guruxlar va kam sonli millatlarga mansub bolalar
ko’p farzandli, o’ziga to’q oilalarning farzandlari, kichik guruxlar va boshqa millatlarga mansub bolalar
hamma bolalar

122 Nutq ko’nikmalari rivojlanishi uchun qaysi davr o’ta muxim davr xisoblanadi:
tug’ilishdan to 3 yoshga qadar
6 oydan 3 yoshga qadar
3 yoshdan 6 yoshga qadar
hamma davr muhim

123 Qaysi usullar bolaga nisbatan ona mehrni namoyon qilishni bildiradi:
bolaga qattiq gapirish, chunki u onaga ko’p kulib turadi
birgalikda jilmayish, kulish, quchoqlash, erkalash, quvnoq hazil qilish va hazil o’yinlar o’ynash
vaziyat joiz bo’lganda bolaga seni yaxshi ko’rmayman deb takroran gapirish, bu tarbiyaga ijobiy ta’sir qiladi
ona o’z bolasini ovqatlantirishi orqali

124 Erta va kichik go’dak yoshdagi 3 yoshgacha bolalarda yig’ining eng ko’p sabablarini aniqlang:
ota-onasini sog’inishi
qorin, quloq og’rig’i, qorin ochligi, diskomfort (tagini xo’l bulishi, isib ketish)
tagini xo’l bo’lishi, isib ketish
ich ketishi

125 Bolalarni to’satdan o’lish sindromi bu:
bu 5 yoshgacha bo’lgan bolalarning ma’lum sabablarga ko’ra o’lishidir
bu 1 yoshga to’lmagan bolalarning kutilmaganda va noma’lum sabablarga ko’ra o’lishidir
bu 0-3 yoshgacha bo’lgan bolalarning noma’lum sabablarga ko’ra o’lishidir
hamma bolalar o’limi

126 Perinatal depressiyaning sabablarini aniqlang:
talvasa tutish
aybdorlik hissi
doimiy holdan toyish, aybdorlik hissi, yaxshi ko’rib qiladigan ishlarga qiziqishni yo’qotish

ko’p kasal bo’lish

127 Ota-ona bilan bola o’rtasidagi bog’liqliqni rivojlantirish borasida qaysi fikrlar to’g’ri:
mustahkam bog’lanish bo’lmagan barcha bolalarning ota onalari yoki bolaga yetarli darajada e’tibor bermaydilar, yoki ularga g’amxo’rlik qilmaydilar
agar ota-onada bolaga nisbatan munosabat bo’lsa, autizm bo’lgan bolada mustahkam bog’lanish rivojlanishi, bolani toksik stressdan himoya qila olishi mumkin
bog’liqlik va bolaga bo’lgan munosabat ularni ikkisi xam yagona tushunchani anglatadi
agar ota-onada bolaga nisbatan yomon munosabat bo’lsa, hamma bolalarda mustahkam bog’lanish rivojlanishi, bolani stressdan himoya qila olishi mumkin

128 Bolalarga nisbatan qilinadigan zo’ravonlik turlarini aniqlang:
ruhiy emotsional holat o’zgarishsiz
seksual
jismoniy, seksual, bolalar mehnatidan foydalanish, ularga nisbatan e’tiborni kamligi, parvarish qilmaslik
ma’naviy tahdidlar

129 Qaysi belgilar bolalarga nisbatan zo’ravonlik yoki shafqatsiz munosabatda bo’lganlikni bildiradi:
faslga mos kiyintirish
tez tez yiqilishi
bola yechinishga qo’rqishi, kayfiyati tez o’zgaruvchan bo’lishi, to’yib ovqatlanmaslik belgilari
yuqumli kasalliklar belgilari

130 O’zgacha rivojlanayotgan bolalarni olib borish bo’yicha to’g’ri fikrlarni tanlang:
rivojlanishida kechikishlari bulgan bolalar xamma vaqt o’z tengdoshlaridan ortda qoladilar
bolalardagi rivojlanishning kechikishlarini kancha erta aniqlash, me’yorda rivojlanayotgan bolalar kabi imkoniyati cheklangan yoki rivojlanishda cheklanishi bor bolalar qulay shart sharoitlarda o’zining to’liq imkoniyatlarini amalga oshira oladilar
rivojlanishda kechikishlari bo’lgan bolalarga tezroq sifatli yordam ko’rsatish uchun ularni oiladan olib qo’yish va maxsus davolash profilaktik muassasalarga joylashtirish kerak
Mehr va muruvvat uylariga topshirish zarur

131 Inyektsiyadan keyingi asoratlar
gematoma
flebeit, abtsess

shish
gemorragik isitma

132 Adrenalin va noradrenalin gormoni tananing qaysi a’zosida ishlab chiqariladi:
qalqonsimon bezda
buyrak usti bezi
oshqozon osti bezi
bosh miya pustlogida

133 Amaldagi “Shifoxona ichi infektsiyasi profilaktikasi” buyrug’ining raqami va tasdiqlangan sanasini ko’rsating:
01.07.2003 yil SanQvaM 0349-03
10.01.2017 yil SanQvaM 0342-17
12.03.2016 yil SanQvaM 0326-16
10.01.2017 yil SanQvaM № 600

134 Noinfektsion kasallik turini belgilang:
pnevmoniya
bronxial astma
revmatizm
tonzillit

135 Patronaj so’zi qanday ma’noni bildiradi:
jur’atlilik
mashaqqat
homiylik, qo’llab quvvatlash, ximoyalash
darbadarlik

136 Hamshiralik jarayonining birinchi bosqichi bu:
hamshiralik tashhisini qo’yish
parvarish rejasini tuzish
bemorni ob’ektiv va sub’ektiv tekshirish
bemorni ovqatlantirish

137 Hamshiralik jarayonining ikkinchi bosqichi:
parvarishni amalga oshirish
hamshiralik tashhisini qo’yish
parvarishni baholash
parvarish rejasini tuzish

138 Hamshiralik jarayonining uchinchi bosqichi:
hamshiralik tashhisini qo’yish
parvarishni amalga oshirish
parvarishni baholash
parvarish rejasini tuzish

139 Hamshiralik jarayonining to’rtinchi bosqichi:

natijani qayd etish
parvarish rejasini tuzish
parvarishni amalga oshirish
bemorni tekshirish

140 Hamshiralik jarayoning beshinchi bosqichi:
natijani qayd etish
tashhis qo’yish
parvarishni amalga oshirish
parvarishni baholash

141 Chaqaloqlarda churraning asosan qaysi turi ko’p uchraydi:
qo’ltiq churrasi
bel churrasi
chov churrasi
kindik churrasi

142 Auskultatsiya bu:
tukillatib ko’rish
eshitib ko’rish
paypaslash
tana haroratini o’lchash

143 Perkussiya bu:
paypaslash
eshitib ko’rish
tukillatish
uqalash

144 Palpatsiya bu:
tana harorati o’lchash
tukillatish
eshitib ko’rish
paypaslash

145 Nekroz bu:
tomir tortishi
pay cho’zilishi
to’qimalarning o’lishi
qonning ivishi

146 Tug’ruqdan keyin ko’krakka sut kelmasligi:
mastopatiya
agalaktiya
dezorentatsiya
embrional

147 Ichki sekretsiya bezi kasalliklarini o’rganuvchi vrach bu:
terapevt
endokrinolog
kardiolog
nefrolog

148 Qonni tozalovchi organizmda laboratoriya vazifasini bajaruvchi organni belgilang:
taloq
jigar
buyrak
qalqonsimon bez

149 Kontratseptiv vositalar turlarini aniqlang:
tabletkalar, in’ektsion usul
bachadon ichi vositasi
ixtiyoriy jarrohlik kontratseptsiya
tabletkalar, ineksion usul bachadon ichi vositasi, jarroxlik kontrosepsiyasi

150 Virusli gepatit turlari to’g’ri ko’rsatilgan javoni toping:
A, D, G, OITS
A, B, C, D, E
OIV va OITS
A, V, S, D, J

151 Patronaj hamshira uyga tashrifida bemorga beriladigan dorining nimasini tekshiradi:
dori ishlab chiqaruvchisini
dori nomini
dorini yaroqliligini va tog’ri saqlanishini
dorini sonini va narxini

152 Patronaj sumkasini kim ishlatadi:
reanimatsiya hamshirasi
patronaj hamshirasi
xirurgiya hamshirasi
stomatolog hamshirasi

153 Yotoq yaralari paydo bo'lmaydigan joylarni aniqlang:
tos sohasi, tovon maydoni, dumba
oksipital soha, tovon, skapula sohasi
dumba, skapula maydoni, tirsak sohasi
qorin, sonlar, yelkalar

154 Gomeostaz nima:
ko’z ichki bosimi
reflekslarning pasayishi

qondagi elementlarning pasayishi
ichki muhit doimiyligi

155 Bola necha oyligidan boshlab yaqinlari ovozini taniy boshlaydi:
2 oyda
4 oyda
1,5 yosh
3 oyda

156 Bolalarda hamshiralik parvarishi obyekti nima:
bemor
oila a’zolari
bola
shifokor

157 Qariyalarni pulsiga xos xarakterli belgini ko’rsating:
taxikardiya
bradikardiya
pulsni to’liqligi oshadi
puls tarangligi pasayadi

158 Transportirovka nima:
bemorni taksida olib ketish
bemorni, bir joydan ikkinchi joyga o’tkazish
bemorni avtobusda olib ketish
bemorni qo’lidan ushlab olib ketish

159 Asosiy ovqatlarga qanday mahsulotlar kiradi:
sutli ovqatlar, go’sht, loviya, mosh, no’xat, tuxum
non, guruch, kartoshka, don mahsulotari, makaronlar
